



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No9(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 160 sahifa,
2-sentyabr, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'smirlarda hissiy bezovtalikning psixologik determinantlari sifatida o'z-o'zini baholash va o'ziga munosabat xususiyatlari.....	10
Ibraymova Altinay Esemuratovna	
Bo'lajak pedagoglar shaxsiyatida ksenofobiya xavfi: kasbiy deformatsiya omillari va uning pedagogik faoliyatga ta'siri	16
Abdiraximova Dildora Begimkulovna	
Biologiya ta'limida sun'iy intellektdan foydalanish: didaktik imkoniyatlar, muammolar va metodik yechimlar.....	20
Raxmatov Uchkun Ergashevich	
Talabalarda mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlash o'rtasidagi psixologik bog'liqlik.....	28
Adizova Muxabbat Muxitdinovna	
Oliy ta'lim rahbar-kadrlarida stressogen vaziyatlarni boshqarishning pedagogik-psixologik o'ziga xos jihatlari	32
Sultonov Mansur G'aniyevich	
Boshlang'ich ta'limda individual yondashuv orqali o'quvchilarning ta'lim natijalarini yaxshilash	37
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli resurs bazasini yaratish kompetensiyasi: tuzilma va mezonlar.....	41
Qo'qonboyeva Durdona Faxriddin qizi	
Biologiyani o'qitishda zamonaviy ta'lim metodlari.....	44
Joldasbayeva Gulchexra Maksetbayevna	
Organik fotoelementlarning moslashuvchanligini oshirish.....	49
Jalolova Pokiza Muzaffarovna	
Dzyudo sport turida texnik tayyorgarlikni takomillashtirishda maxsus mashqlardan foydalanish samaradorligi.....	54
Ko'palov Sanjar Ulug'bekovich	
Interactive Methods for Developing Sociolinguistic Competence in Higher Education	59
Baxramova Diyora Sanjar qizi	
Texnika yo'nalishi talabalarini ishlab chiqarish muhitiga tayyorlashda CDIO va sanoat korxonalari hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	66
Gaffarov Xasan Ravshanovich	
Onkologik bemorlarga tashxisni bildirish madaniyati va uning psixologik oqibatlari (O'zbekiston misolida)...	70
Jonpo'lotova Manzura Jahonovna	
Malaka oshirish jarayonida rahbar-kadrlarning SOFT-kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi.....	75
Axrrova Umida Xamidullayevna	
Refleksiv ta'lim muhitida o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik parametrlari tizimi	81
Sadikova Shaxnoza Ulug'bek qizi	
Loyihaviy faoliyat asosida talabalarda mustaqil ta'lim kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlari	87
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Biologiya fanini o'qitishda biologiya (maxsus pedagogika: logopediya) yo'nalishi talabalarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	91
Hakimova Musharraf Fozilovna, Hasanova Zebo Davlatovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda bolalar adabiyotining didaktik imkoniyatlari	96
Homiyatova Mavluda Amon qizi	
Boshlang'ich sinflarda raqamli ta'lim muhitini yaratish va interaktiv metodlardan foydalanish	101
Karimova Nargiza Raximovna	



Maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalar asosida bolalarning soft skillsini rivojlantirish: interaktiv va sun'iy intellektga asoslangan yondashuvlar	109
Mamatqulova Nozimaxon Shavkat qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida innovatsion pedagogik faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirish: kvazi-eksperimental tadqiqot	116
Nozimabonu Tojiboyeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborotni tekshirish va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	124
Abduraxmonova Gulandam Anvarjonovna	
Funksional yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini takomillashtirishning ustuvor jihatlari	130
Safarov Dilmurod Zoirovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv faoliyati samaradorligini oshirishda o'qish savodxonligining ahamiyati	135
Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich	
Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish asosida matematika fanini o'qitishda o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish metodikasi	140
Sultonova Shahnoza Yusuf qizi	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish metodikasini yosh omili asosida takomillashtirish	147
Akhmadaliyeva Nargizakhon Abdumalik qizi	
Tengdoshlar bilan munosabat sifatiga oilaviy muhitning bilvosita ta'siri	153
Baratullayeva Dilnoza Xabibullo qizi	
Bolalar kiyimlari va ular bilan bog'liq urf-odatlar (Buxoro vohasi misolida)	156
G'iyosova Zarina Yusuf qizi	



MAKTABGACHA TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BOLALARNING SOFT SKILLSINI RIVOJLANTIRISH: INTERAKTIV VA SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN YONDASHUVLAR

Mamatqulova Nozimaxon Shavkat qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,
Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim)
mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda soft skills - yumshoq ko'nikmalarni rivojlantirishda raqamli pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy-pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy raqamlashtirish sharoitida maktabgacha ta'limning vazifasi bolalarga dastlabki bilimlarni berish bilan bir qatorda, ularning muloqot qilish, hamkorlikda faoliyat yuritish, ijodiy va mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish hamda ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarini rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Maqolada interaktiv multimedia, raqamli hikoyalash, ta'limiy o'yinlar, elektron topshiriqlar hamda sun'iy intellektga asoslangan pedagogik vositalarning imkoniyatlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo'lib, unda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, umumlashtirish va pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanishda bolaning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish, raqamli xavfsizlikni ta'minlash, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va pedagogning nazoratini saqlab qolish zarurligi asoslanadi. Maqolada "texnologiya – pedagog – bola – real faoliyat" tamoyiliga asoslangan pedagogik yondashuv taklif etiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, soft skills, yumshoq ko'nikmalar, raqamli texnologiyalar, raqamli pedagogika, sun'iy intellekt, interaktiv ta'lim, ijodkorlik, kommunikativ kompetensiya, hamkorlik, ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar.

Abstract: This article analyzes the theoretical and pedagogical potential of digital technologies for developing soft skills in preschool children. In the context of digitalization, modern preschool education should focus not only on basic knowledge but also on communication, collaboration, creativity, independent thinking, problem-solving, and social-emotional skills. The article examines the potential of interactive multimedia, digital storytelling, educational games, electronic learning activities, and artificial intelligence-based pedagogical tools through a review of scientific and policy sources. The study is theoretical and analytical in nature and applies literature analysis, comparative analysis, systematization, generalization, and pedagogical modeling. Particular attention is paid to age appropriateness, digital safety, data protection, and teacher supervision. The article proposes a pedagogical approach based on the principle of "technology – teacher – child – real-life activity".

Key words: preschool education, soft skills, digital technologies, digital pedagogy, artificial intelligence, interactive learning, creativity, communication, collaboration, social-emotional skills.

Аннотация: В статье анализируются теоретико-педагогические возможности использования цифровых технологий для развития soft skills у детей дошкольного возраста. В условиях цифровизации современное дошкольное образование должно быть направлено не только на формирование первоначальных знаний, но и на развитие коммуникативных навыков, сотрудничества, творческого и самостоятельного мышления, способности решать проблемные ситуации и социально-эмоциональных навыков. На основе научных источников рассматриваются возможности интерактивных мультимедийных средств, цифрового сторителлинга, образовательных игр, электронных заданий и педагогических инструментов на основе искусственного интеллекта. Исследование носит теоретико-аналитический характер. Используются методы анализа научной литературы, сравнительного анализа, систематизации, обобщения и педагогического моделирования. Обоснована необходимость учета возрастных и психологических особенностей детей, обеспечения цифровой безопасности, защиты персональных данных и педагогического контроля.

Ключевые слова: дошкольное образование, soft skills, мягкие навыки, цифровые технологии, цифровая педагогика, искусственный интеллект, интерактивное обучение, творчество, коммуникация, сотрудничество, социально-эмоциональные навыки.

KIRISH

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jamiyatning barcha sohalariga, jumladan, ta'lim tizimiga ham jadal kirib kelmoqda. Maktabgacha ta'limda raqamli vositalardan foydalanish ta'lim mazmunini vizuallashtirish, interaktiv faoliyatni tashkil etish, bolalarning qiziqishini qo'llab-quvvatlash va pedagogik jarayonni boyitish uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda.

Raqamlashtirishning erta bolalik ta'limiga ta'siri xalqaro miqyosda ham keng o'rganilmoqda. OECDning "Empowering Young Children in the Digital Age" hisobotida raqamlashtirish maktabgacha ta'lim uchun yangi o'quv materiallari va muhitlarini yaratishi mumkinligi, shu bilan birga, ekran vaqti, bolalar ma'lumotlarining himoyasi va raqamli xavfsizlik kabi muammolarni ham hisobga olish zarurligi qayd etiladi ^[15]. Maktabgacha ta'limda texnologiyadan foydalanishning asosiy maqsadi bolani raqamli qurilmaga bog'lash emas, balki uning rivojlanishi uchun qo'shimcha pedagogik imkoniyat yaratishdan iborat bo'lishi lozim. Shu sababli raqamli vositalardan foydalanish jonli muloqot, o'yin, ijodiy faoliyat va hamkorlik bilan uyg'unlashtirilishi zarur.

O'zbekistonda ham maktabgacha ta'limda innovatsion va raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasidan foydalanishning didaktik mexanizmlariga bag'ishlangan tadqiqotda faoliyatga asoslangan, integrativ va ijodiy yondashuvlarning pedagogik imkoniyatlari o'rganilgan ^[3].

Raqamli texnologiyalar bilan bir qatorda sun'iy intellektning ta'lim jarayoniga kirib kelishi mazkur masalaning dolzarbligini yanada oshirmoqda. UNESCOning 2024-yilgi "AI Competency Framework for Students" hujjatida sun'iy intellekt bo'yicha 12 ta kompetensiya to'rtta asosiy yo'nalish - inson markazli tafakkur, AI etikasi, AI texnikalari va qo'llanmalari hamda AI tizimlarini loyihalash doirasida yoritilgan ^[16]. Biroq maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda sun'iy intellektidan foydalanish alohida ehtiyotkorlikni talab qiladi.

UNICEFning 2025-yilgi yo'riqnomasida bolalar uchun AI tizimlarida xavfsizlik, ma'lumotlar va maxfiylikni himoya qilish, kamsitmaslik, shaffoflik, javobgarlik va bolaning manfaatlarini ta'minlash kabi talablar ilgari surilgan ^[19]. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalarda soft skillsni rivojlantirishda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning pedagogik imkoniyatlarini nazariy jihatdan o'rganish dolzarb ilmiy-pedagogik masala hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarda soft skillsni rivojlantirishda raqamli pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy-pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilish hamda interaktiv va sun'iy intellektga asoslangan yondashuvlarning mazmunini ochib berishdan iborat.

Maqsadga muvofiq quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda soft skills tushunchasining mazmunini tahlil qilish.
2. Raqamli texnologiyalarning maktabgacha ta'limdagi pedagogik imkoniyatlarini o'rganish.
3. Interaktiv texnologiyalarning kommunikativ, ijodiy va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rnini aniqlash.
4. Sun'iy intellektga asoslangan pedagogik vositalarning imkoniyatlarini tahlil qilish.
5. Raqamli texnologiyalar asosida soft skillsni rivojlantirishning pedagogik yondashuvini taklif etish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish, bolalarning kommunikativ, ijodiy va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan turli yo'nalishlarda o'rganilgan. Mazkur tadqiqotlarda raqamli ta'lim vositalarining pedagogik imkoniyatlari, STEAM texnologiyalari, mediata'lim, bolalarning muloqot ko'nikmalari, ijtimoiy intellekti hamda raqamli xavfsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Mahalliy tadqiqotchilardan Z. M. Ashurova maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasidan foydalanishning didaktik mexanizmlarini o'rganib, integrativ, faoliyatga asoslangan va ijodiy yondashuvlarning pedagogik imkoniyatlarini yoritgan ^[3].

A. Y. Isabayeva maktabgacha yoshdagi bolalarni muloqotga o'rgatish texnologiyalarini tadqiq etib, bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishning metodik jihatlariga e'tibor qaratgan ^[4].

G. A. Ruziyeva tayyorlov guruhi bolalarining ijtimoiy intellektini rivojlantirish masalasini o'rganib, bolalarning tengdoshlari bilan munosabatga kirishishi, ijtimoiy vaziyatlarni tushunishi va o'z xatti-harakatlarini boshqarishiga oid pedagogik jihatlarini yoritgan ^[5].

F. D. Shermanova esa mediata'lim texnologiyalari asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini tadqiq etgan ^[6].

D. R. Babayeva, N. N. Djamilova va D. F. Xalilova maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritgan ^[7].



Raqamli muhitda bolalar xavfsizligini ta'minlash masalasi ham mahalliy tadqiqotlarda o'z aksini topgan. D. U. Nazarmatova, S. A. Saminjonova, M. F. Abdihakimova va N. S. Matsapayeva maktabgacha yoshdagi bolalarda raqamli platformalar orqali kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish masalasini tadqiq etgan ^[9].

N. Saidova va Z. Pirmatova esa STEAM ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'limda qo'llash bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rgangan ^[10].

Xorijiy va xalqaro ilmiy-metodik manbalarda maktabgacha yoshdagi bolalarning raqamli muhitdagi rivojlanishiga kompleks yondashuv kuzatiladi. OECDning Empowering Young Children in the Digital Age hisobotida raqamlashtirishning erta bolalik ta'limidagi imkoniyatlari bilan bir qatorda ekran vaqti, raqamli xavfsizlik va bolalar ma'lumotlarini himoya qilish masalalariga e'tibor qaratilgan ^[13].

UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan sun'iy intellekt kompetensiyalari tizimida inson markazli yondashuv, sun'iy intellekt etikasi, texnologiyalardan mas'uliyatli foydalanish va tanqidiy baholash masalalari yoritilgan ^[14]. UNESCOning generativ sun'iy intellektdan ta'lim va tadqiqotlarda foydalanishga oid tavsiyalarida ham pedagogik maqsadga muvofiqlik va insonning yetakchi roli muhim tamoyillar sifatida qaraladi ^[15].

UNICEFning bolalar va sun'iy intellektga oid tavsiyalarida esa xavfsizlik, maxfiylik, shaffoflik, adolat va bola manfaatlarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan ^[17].

Mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyalari, mediata'lim, kommunikativ ko'nikmalar, ijtimoiy intellekt, raqamli xavfsizlik va sun'iy intellektning pedagogik imkoniyatlari alohida yo'nalishlar sifatida o'rganilgan.

Mazkur maqolaning o'ziga xos jihati esa ushbu yo'nalishlardan farqli ravishda, maktabgacha yoshdagi bolalarda soft skillsni rivojlantirishni raqamli pedagogik texnologiyalar, interaktiv vositalar va sun'iy intellektga asoslangan yondashuvlar bilan o'zaro integratsiyada ko'rib chiqishdan iborat.

Muallif tomonidan raqamli hikoyalash, interaktiv o'yinlar, multimedia, elektron topshiriqlar va sun'iy intellekt yordamida tayyorlangan pedagogik materiallarni kommunikativ ko'nikmalar, hamkorlik, ijodkorlik, mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar bilan bog'lash nazarda tutiladi. Shuningdek, "texnologiya – pedagog – bola – real faoliyat" tamoyiliga asoslangan pedagogik yondashuv taklifi etilishi tadqiqotning o'ziga xos jihatini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqola nazariy-tahliliy xarakterga ega bo'lib, muallif tomonidan tajriba-sinov, so'rovnoma yoki eksperimental tadqiqot o'tkazilmagan. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy, faoliyatga asoslangan, integrativ va raqamli pedagogik yondashuvlar tashkil etadi.

Maqolani tayyorlash jarayonida:

- ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish;
- qiyosiy tahlil;
- tizimlashtirish;
- umumlashtirish;
- pedagogik modelashtirish
- metodlaridan foydalanildi.

Tahlil uchun O'zbekiston va xorijiy ilmiy manbalari, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari hamda maktabgacha ta'lim va raqamli texnologiyalarga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar tanlab olindi ^[1–14; 15–25].

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Soft skills tushunchasi va uning maktabgacha ta'limdagi mazmuni

Soft skills tushunchasi shaxsning boshqa insonlar bilan samarali muloqot qilishi, hamkorlik qilishi, muammoli vaziyatlarda yechim topishi, ijodiy va mustaqil fikrlashi hamda o'z faoliyatini boshqarishi bilan bog'liq ko'nikmalarni anglatadi. Maktabgacha yosh davrida soft skillsning quyidagi komponentlarini ajratish mumkin:

- kommunikativ ko'nikmalar;
- hamkorlik;
- ijodkorlik;
- mustaqil fikrlash;

- muammoli vaziyatlarni hal qilish;
- ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar;
- moslashuvchanlik;
- o'zini boshqarish.

Muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga oid mahalliy pedagogik tadqiqotlarda ham maktabgacha yoshdagi bolalarni muloqotga o'rgatishning metodik va texnologik jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan ^[4].

Ijtimoiy intellektni rivojlantirishga bag'ishlangan tadqiqotlar esa bolalarning tengdoshlari bilan munosabatga kirishishi, o'z xatti-harakatlarini boshqarishi va ijtimoiy vaziyatlarni tushunishi maktabgacha ta'limning muhim vazifalaridan ekanini ko'rsatadi ^[5]. Demak, soft skills maktabgacha yoshdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantiriladigan ko'p komponentli kompetensiyalar tizimi sifatida qaralishi mumkin.

2. Raqamli texnologiyalarning soft skillsni rivojlantirish imkoniyatlari

Raqamli texnologiyalar maktabgacha ta'limda bolalarning faol ishtirokini tashkil qilish uchun turli imkoniyatlarni yaratadi.

Jumladan:

- interaktiv o'yinlar;
- raqamli hikoyalash;
- multimedia;
- animatsiyalar;
- elektron topshiriqlar;
- raqamli rasm va ijodiy faoliyat;
- audio va video materiallar;
- pedagog tomonidan AI yordamida ishlab chiqilgan topshiriqlar.

OECD tahliliga ko'ra, raqamlashtirish maktabgacha ta'limda yangi o'quv materiallari va muhitlarini yaratish imkonini beradi, biroq uning xavflarini ham hisobga olish talab etiladi ^[15]. Shuning uchun raqamli texnologiyaning pedagogik qiymati uning mavjudligida emas, balki bola undan qanday faoliyat uchun foydalanayotganida namoyon bo'ladi. Masalan, bola tayyor videoni faqat tomosha qilsa, uning faol ishtiroki cheklangan bo'lishi mumkin. Aksincha, video asosida savollarga javob berish, qahramon uchun qaror qabul qilish, hikoyani davom ettirish yoki guruh bilan muhokama qilish tashkil etilsa, soft skills rivojlanishi uchun kengroq imkoniyat yaratiladi.

3. Raqamli hikoyalash orqali kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish

Raqamli hikoyalash maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirishda qo'llanishi mumkin. Pedagog ekranda turli rasmlar, obrazlar yoki voqealar ketma-ketligini namoyish etadi. Bolalar esa:

- tasvirlarni kuzatadi;
- voqealar ketma-ketligini aniqlaydi;
- qahramonlarga nom beradi;
- hikoya tuzadi;
- guruh bilan fikr almashadi;
- o'z hikoyasini taqdim etadi.

Bunda kommunikativ kompetensiya bilan bir qatorda ijodkorlik, hamkorlik va mustaqil fikrlash ham faollashadi. Mediata'lim texnologiyalari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga bag'ishlangan mahalliy tadqiqot ham ushbu yo'nalishning pedagogik imkoniyatlarini ko'rsatadi ^[6].



4. Interaktiv o'yinlar va hamkorlik ko'nikmalari

Maktabgacha yoshdagi bola uchun o'yin yetakchi faoliyatlardan biridir. Shu sababli raqamli texnologiyalarni o'yin faoliyati bilan uyg'unlashtirish soft skillsni rivojlantirishning tabiiy shakllaridan biri bo'lishi mumkin. Masalan, "Qahramonga yordam beramiz" nomli interaktiv topshiriqda bolalarga muammoli vaziyat taqdim etiladi. Bolalar kichik guruhlariga bo'linib, qahramon uchun eng maqbul yechimni tanlaydilar.

Bu jarayonda bola:

- o'z fikrini bildiradi;
- boshqa bolalarni tinglaydi;
- fikrlarni taqqoslaydi;
- umumiy qarorga keladi;
- qarorini tushuntiradi.

Natijada raqamli vosita hamkorlik va kommunikatsiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi vositaga aylanadi.

STEAM yondashuviga oid tadqiqotlarda ham maktabgacha ta'limda integrativ va amaliy faoliyatni tashkil etishning imkoniyatlari asoslangan ^[3; 7].

5. Sun'iy intellekt va uning pedagogik imkoniyatlari

Sun'iy intellekt texnologiyalari pedagogga ta'limiy materiallarni tayyorlash, turli vaziyatlarni modellashtirish va ijodiy topshiriqlarni ishlab chiqishda yordam berishi mumkin. Maktabgacha ta'limda AI texnologiyasini bevosita bolaning mustaqil foydalanishiga berishdan ko'ra, uni pedagogning yordamchi vositasi sifatida qo'llash ehtiyotkorroq yondashuv hisoblanadi.

Masalan, pedagog AI yordamida:

- yoshga mos hikoyalar;
- rolli o'yin ssenariylari;
- muammoli vaziyatlar;
- savollar;
- ijodiy topshiriqlar;
- rasm asosida suhbat uchun materiallar

tayyorlashi mumkin. Bunda pedagog AI yaratgan materialni albatta tekshirishi, bolaning yoshiga mosligini baholashi va zarur hollarda o'zgartirishi kerak. UNESCOning AI kompetensiyalar tizimi AI bilan ishlashda inson markazli yondashuv, etik mas'uliyat va tanqidiy baholashga e'tibor qaratadi ^[16]. Shu nuqtayi nazardan, maktabgacha ta'limda AI bolaning o'rniga fikrlaydigan vosita emas, balki bolaning mustaqil fikrlashi va ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi pedagogik resurslarni yaratishga yordam beruvchi vosita sifatida qaralishi kerak.

6. Sun'iy intellekt va bolalar xavfsizligi

AI texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari bilan bir qatorda, xavfsizlik masalasi ham muhimdir. UNICEFning 2025-yilgi "Guidance on AI and Children" hujjatida bolalar uchun AI tizimlarini yaratish va qo'llashda xavfsizlik, ma'lumotlar va maxfiylikni himoya qilish, adolat, shaffoflik va bolaning manfaatlarini ta'minlash kabi talablar ko'rsatilgan ^[19]. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida AI va raqamli vositalardan foydalanishda:

- bolaning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish;
- bolaning fotosurat va videolaridan foydalanishda ehtiyotkorlik;
- noma'lum raqamli platformalardan foydalanmaslik;
- AI yaratgan materialni pedagog tomonidan tekshirish;
- bolani nomaqbul kontentdan himoya qilish

zarur. Raqamli platformalardan foydalanishda kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish masalasi ham maktabgacha ta'lim uchun dolzarb yo'nalishlardan biridir ^[9].

7. Soft skillsni rivojlantirishning taklif etilayotgan pedagogik modeli

Nazariy manbalarni umumlashtirish asosida quyidagi model taklif etiladi:

1-bosqich - MOTIVATSIYA

Raqamli rasm, animatsiya, audio yoki qisqa video orqali bolada qiziqish uyg'otiladi.

2-bosqich - MUAMMOLI VAZIYAT

“Qanday yordam beramiz?”, “Qaysi yo'lni tanlaymiz?” kabi savollar beriladi.

3-bosqich - HAMKORLIK

Bolalar juftlik yoki kichik guruhlarda fikr almashadi.

4-bosqich - IJODIY FAOLIYAT

Bolalar hikoya, rasm, rolli o'yin yoki boshqa ijodiy mahsulot yaratadi.

5-bosqich - TAQDIMOT

Bola yoki guruh o'z qarorini tushuntiradi.

6-bosqich - REFLEKSIYA

“Bugun nimani o'rgandim?”, “Do'stinga qanday yordam berdim?”, “Qaysi qarorni tanladim?” kabi savollar orqali faoliyat muhokama qilinadi. Ushbu modelda raqamli texnologiya maqsad emas, pedagogik vosita sifatida qaraladi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar maktabgacha ta'limda bir nechta soft skills komponentlarini rivojlantirish uchun qo'shimcha pedagogik imkoniyatlar yaratishi mumkin.

Birinchidan, raqamli hikoyalash va multimedia vositalari bolaning o'z fikrini ifodalashiga imkon yaratib, kommunikativ ko'nikmalarni qo'llab-quvvatlashi mumkin [4; 6].

Ikkinchidan, guruhli interaktiv topshiriqlar bolalar o'rtasidagi fikr almashish va hamkorlikni kuchaytirishi mumkin [3; 7].

Uchinchidan, ochiq yakunli raqamli topshiriqlar ijodiy fikrlash uchun sharoit yaratadi [3; 6].

To'rtinchidan, muammoli interaktiv o'yinlar bolaning tanlov qilish va oddiy muammolarga yechim topish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Beshinchidan, AI yordamida pedagog turli darajadagi topshiriqlarni ishlab chiqishi va ta'lim jarayonini boyitishi mumkin. Biroq AI tomonidan yaratilgan material bolaning yoshiga mosligi va pedagogik jihatdan to'g'riligi nuqtayi nazaridan o'qituvchi tomonidan tekshirilishi zarur [16; 19].

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar bolaning jonli muloqoti, harakatli o'yinlari va real tajribalarining o'rnini egallamasligi kerak. OECDning tahlili ham raqamlashtirishning imkoniyatlari bilan bir qatorda, ekran vaqti va bolalar ma'lumotlarini himoya qilish kabi muammolarni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi [15]. Shuning uchun maktabgacha ta'limda quyidagi integratsiyalashgan yondashuv maqsadga muvofiq:

raqamli faoliyat + jonli muloqot + harakatli o'yin + ijodiy faoliyat + refleksiya.

Raqamli Texnologiyalardan Foydalanishning Pedagogik Tamoyillari

- Yoshga moslik.** Raqamli material bolaning yosh va psixologik rivojlanish xususiyatlariga mos bo'lishi kerak.
- Maqsadlilik.** Har bir texnologik vosita aniq pedagogik maqsadga xizmat qilishi lozim.
- Faollik.** Bola faqat tomoshabin bo'lmasdan, savolga javob berishi, tanlov qilishi, fikr bildirishi va ijodiy faoliyatda qatnashishi kerak.
- Hamkorlik.** Raqamli topshiriqlar imkon qadar bolalar o'rtasidagi muloqot va hamkorlikni kuchaytirishi lozim.
- Real faoliyat bilan integratsiya.** Raqamli faoliyat jonli o'yin, suhbat, tajriba, rasm chizish va harakatli faoliyat bilan birlashtirilishi kerak.
- Xavfsizlik.** Bolaning shaxsiy ma'lumotlari va raqamli xavfsizligi ta'minlanishi lozim [9; 19].
- Pedagogik nazorat.** AI va boshqa raqamli vositalar pedagogni almashtirmasligi, yakuniy pedagogik qaror esa pedagog tomonidan qabul qilinishi zarur.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda soft skillsni rivojlantirishda raqamli pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy imkoniyatlari tahlil qilindi. Ilmiy manbalar tahlili asosida raqamli hikoyalash, interaktiv o'yinlar, multimedia, elektron topshiriqlar va sun'iy intellekt yordamida tayyorlangan pedagogik materiallar kommunikativ, ijodiy, hamkorlik, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkinligi asoslandi [3; 4; 6; 15]. Bunda raqamli texnologiyalarning samaradorligi texnologiyaning o'ziga emas, balki uning pedagogik maqsadga muvofiq qo'llanilishiga bog'liq.

Maktabgacha ta'limda AI texnologiyalaridan foydalanishda inson markazli yondashuv, pedagogik nazorat, bolaning xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish muhim ahamiyatga ega [16; 19]. Shu asosda maqolada "texnologiya – pedagog – bola – real faoliyat" tamoyiliga asoslangan pedagogik yondashuv taklif qilindi. Mazkur yondashuvda texnologiya bolaning jonli muloqoti va real faoliyatini almashtirmaydi, balki ularni boyituvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Kelgusida ushbu nazariy yondashuvni amaliy tajriba-sinov asosida tekshirish, maktabgacha yoshdagi bolalarning soft skills darajasini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish va raqamli pedagogik texnologiyalarning samaradorligini empirik baholash istiqbolli ilmiy yo'nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ta'limda raqamli transformatsiya. – Toshkent, 2024.
2. Xaydarov R.Y. Raqamlashtirish muhitida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini boshqarish mexanizmini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – 2024.
3. Ashurova Z.M. Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasidan foydalanishning didaktik mexanizmi: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati. – 2023.
4. Isabayeva A.Y. Maktabgacha yoshdagi bolalarni muloqotga o'rgatish texnologiyalarini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati. – 2023.
5. Ruziyeva G.A. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tayyorlov guruhi bolalarining ijtimoiy intellektini rivojlantirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati. – 2023.
6. Shermanova F.D. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini mediata'lim texnologiyalari asosida rivojlantirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati. – 2023.
7. Babayeva D.R., Djamilova N.N., Xalilova D.F. Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyalari. – Toshkent: Ilm ziyo zakovat, 2022. – 116 b.
8. O'rinova F.O'. Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyalari. – Farg'ona, 2024.
9. Nazarmatova D.U., Saminjonova S.A., Abdihakimova M.F., Matsapayeva N.S. Maktabgacha yoshdagi bolalarda raqamli platformalar orqali kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish. – "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali, 2026.
10. Saidova N., Pirmatova Z. STEAM ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'limda qo'llash bo'yicha xorijiy tajribalar. – "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali, 2025.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-152-son1 Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son2 qarori.
13. OECD. Empowering Young Children in the Digital Age. Starting Strong. Paris: OECD Publishing, 2023. DOI: 10.1787/50967622-en.
14. Miao F., Shiohira K., Lao N. AI Competency Framework for Students. Paris: UNESCO, 2024.
15. UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO, 2023.
16. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education: A Tool on Whose Terms? Paris: UNESCO, 2023.
17. UNICEF Innocenti. Guidance on AI and Children: Version 3.0 - Recommendations for AI Policies and Systems that Uphold Child Rights. UNICEF, 2025.

1 <https://lex.uz/docs/-7128182>

2 <https://lex.uz/ru/docs/-4327235>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №9(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.